

**QASHQADARYO VILOYATIDA MAHALLIY BYUDJET
DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH****Baxriyev Dilshod Rizvonqulovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute, 2-kurs magistranti

Byudjet tizimining muhim tarkibiy qismi mahalliy byudjetlar hisoblanadi. O'z mohiyatiga ko'ra mahalliy byudjet bu davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladigan qonuniy hujjatdir. Mahalliy byudjetlar mamlakatda yaratilgan milliy daromadning taqsimlanishi asosida hududlarda istiqomat etuvchi aholiga uning natijalarini etkazib beruvchi asosiy dastak hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlarning mohiyati uning maqsadlilikidir. Ushbu omil esa, mahalliy byudjetlar bajaradigan funksiyalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mahalliy byudjet mamlakatning har bir hududini iqtisodiy – ijtimoiy rivojlantirishga bevosita ta'sir etuvchi eng muhim dastak hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda mahalliy hokimiyat organlarining hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha vakolatlari ortib bormoqda. Ushbu omil mamlakatimizni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishda mahalliy davlat organlarining ahamiyati ortib borishidan dalolat beradi. Mahalliy byudjet harajatlarining ortib borishi ob'yektiv ravishda ularning daromad bazasini mustahkamlashni taqozo etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlardagi kabi bizning respublikamizning barcha viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham mahalliy byudjet daromadlar tarkibida umumdavlat soliqlaridan ajratmalarning egallagan ulushi yuqori darajadali uzoq yillardan beri saqlanib kelmoqda. Olib borgan tadqiqotimiz natijasida shu narsaga guvoh bo'ldikki, hozirgi vaqtda ham mahalliy byudjet daromadlari tarkibida mahalliy soliqlar va yig'imlarning egallagan ulushi juda past darajada qolib ketmoqda. Biz ilmiy izlanishimiz predmeti sifatida olingan Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti daromadlarini tahlil etamiz.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti daromadlar tarkibi¹

(% da)

	Ko'rsatkichlar	Yillar		
		2019 y	2020 y	2021 y
1	Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar jami:	75,4	62,2	62,9
a	Shu jumladan Yuridik shaxslar daromad (foyda solig'i)	11,1	10,0	7,5
b	Aylanmadan soliq	3,0	3,8	4,5
v	Jismoniy shaxslar daromad solig'i	23,7	41,6	43,1
g	Aksiz solig'i	5,7	6,8	7,8
d	qo'shilgan qiymat solig'i	31,9	0	0
2	Biriktirilgan soliqlar jami:	24,6	37,8	37,1

¹ Qashqadaryo viloyat Davlat soliq boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

a	Shu jumladan Resurs to'lovlar va mol-mulk solig'i	18,0	25,6	22,2
b	Mahalliy soliqlar	3,2	4,2	4,8
v	Davlat boji	1,6	2,8	4,1
g	Boshqa tushumlar va yig'imlar	1,8	5,2	6,0
	Jami daromadlar	100,0	100,0	100,0

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti daromadlar tarkibida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar asosiy ulushni egallab turibdi. Masalan, viloyat byudjetining umumiy daromadlar tarkibida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar 2019 yilda 75,4 % ni, 2020 yilda 62,2 % ni va 2021 yilda 62,9 % ni tashkil etgan. Umumdavlat soliqlari tarkibida qo'shilgan qiymat solig'idan ajratmalar umumiy daromadlarning 2019 yilda – 31,9 % ni, 2020-2021 yillarda qushilgan qiymat solig'i tashkil etmaganligini ko'rish mumkin. Jismoniy shaxslardan daromad solig'idan tushumlar umumiy daromadlar tarkibida 2019 yilda – 23,7 % ni, 2020 yilda – 41,6 % ni va 2021 yilda 43,1 % mahalliy byudjet daromadlarini tashkil etgan. Yuridik shaxslar daromadlari tarkibida 2019 yilda -11,1 % ni, 2020 yilda – 10,0 % ni va 2021 yilda 7,5 % ni tashkil etgan. Savdo, umumiy ovqatlanish, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliqdan tushumlar umumiy daromadlar tarkibida 2019 yilda -3,0 % ni, 2020 yilda – 3,8 % ni va 2021 yilda – 4,5 % ni tashkil etgan. Bilvosita soliq hisoblangan aksiz solig'idan tushum esa yildan yilga kamayish va kupayish tendensiyasiga ega. Masalan, aksiz solig'idan tushum umumiy daromadlar tarkibida 2019 yilda -5,7 % ni, 2020 yilda – 6,8 % ni va 2021 yilda – 7,8 % ni tashkil etgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjetining umumiy daromadlari tarkibida umumdavlat soliqlardan ajratmalar uzoq yillar davomida katta salmoqni egallab turibdi. Ushbu soliqlar tarkibida asosiy o'rinni jismoniy shaxslar daromad solig'i egallaydi. Masalan, 2019 yilda ushbu soliqning mahalliy byudjet daromadlar tarkibidagi salmog'i 23,73 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 43,1 % ni tashkil etdi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'iga ham ushbu soliqning ulushi mos ravishda 2019 yilda 11,1 % bo'lgan bo'lsa, 2021 yilda 7,5 % ni tashkil etdi. Qashqadaryo viloyatida mamlakatimizning yirik sanoat korxonalari hisoblangan Muborak gazni qayta ishlash majmuasi, Sho'rtangazkimyo majmuasi faoliyat yuritadi. Bu korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotlar va ish hajmining oshishi hisobiga viloyat mahalliy byudjet daromadlarini tarkibi o'ziga xos ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti daromadlari tarkibida biriktirilgan soliqlarning ulushi past darajada. Ularning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 2019 yilda -24,6 % ni, 2020 yilda 37,8 % ni va 2021 yilda – 37,1 % ni tashkil etib yildan-yilga oshib kelayotganligini ko'rish mumkin. Tahlil natijasida biriktirilgan soliqlar tarkibida yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar hamda mol-mulk solig'idan tushumlar asosiy ulushni egallab turganligiga guvoh bo'ldik. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar hamda mol-mulk solig'idan keladigan tushumlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 2019 yilda -18,0 % ni, 2020 yilda 25,6 % ni va 2021 yilda – 22,2 % ni tashkil etgan. Buning asosiy sababi, Qashqadaryo viloyati hududida katta neft zahiralar mavjud. Buxoro neftni qayta ishlash korxonasi uchun 90,0 % dan ortiq xom ashyo Qashqadaryo viloyatida qazib olinadi. 2021 yilda yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqdan umumiy tushumning 3 % Qashqadaryo viloyat byudjetiga yo'naltirilgan va ushbu soliqdan tushumning ulushi doimiy saqlanib qolish tendensiyasiga ega.

2-jadval

Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti daromadlarining tasnifi² (% da)

t/r	Ko'rsatkichlar nomlanishi	Yillar		
		2019 y	2020 y	2021 y
I	Soliqlar va yig'imlar jami	100,0	100,0	100,0

² Qashqadaryo viloyat Davlat soliq boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

1	Shu jumladan Bevosita soliqlar	40,9	62,0	53,5
2	Bilvosita soliqlar	48,8	16,9	15,3
3	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	5,0	11,3	18,3
4	Boshqa daromadlar va yig'img'lar	5,3	9,8	12,9

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjet daromadlari tarkibida bilvosita soliqlar hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ining egallagan ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bilvosita soliqlarning viloyat mahalliy byudjeti umumiy daromadlari tarkibidagi egallagan ulushi 2019 yilda – 48,8 % ni, 2020 yilda 16,9 % ni va 2021 yilda 15,3 % ni tashkil etgan. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjet daromadlarining bilvosita soliqlarini to'lovchilari yirik korxonalar hisoblanadi, lekin davlatimiz tomonidan ushbu korxonalarning ishlab chiqarish xajmlari yildan yilga ortib borayotganligini hisobga olib turli soliq turlaridan imtiyozlar berish evaziga bilvosita soliqlarning tushub borish tendensiyasini kelajakda ham saqlanib qolishiga shakl shubha yo'q. Viloyat mahalliy byudjeti tarkibida erqa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar hamda mol-mulk solig'ining egallagan ulushi yillar davomida yuqori darajada saqlanib kelmoqda. Ushbu soliqlardan tushumlar umumiy 2019 yilda – 5,0 % ni, 2020 yilda 11,3 % ni va 2021 yilda – 18,3 % ni tashkil etgan. Ilmiy tadqiqotimiz tahlili shundan dalolat beradiki, Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjetiga resurs to'lovini to'lovchilar asosan, G'uzor tumanidagi «Sho'rtangazkimyo majmuasi» va Muborak tumanidagi «Muborak gazni qayta ishlash unitar korxonasi» hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjeti daromadlari tarkibida boshqa daromadlar va yig'imlarning ulushi juda past darajada edi hozirgi vaqtda. Ushbu to'lovlar mahalliy byudjet daromadlarining atigi 12,9 % ini tashkil etmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bizning fikrimizcha, viloyat byudjeti daromadlarini oshirishda ushbu yo'nalishda katta imkoniyatlar mavjud. Mamlakatimizda olib borilayotgan isloxtlarning uchinchi ustuvor yo'nalishi – aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va aholi farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish soxalarini rivojlantirishni rag'batlantirishdan iborat. Ushbu yo'nalishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonlari soddalashtirildi va ular faoliyatiga nisbatan mahalliy hukumat tomonidan noqonuniy tekshirishlar cheklandi. 2021 yilda soliq sohasini yanada erkinlashtirish siyosati davom ettirilmoqda. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlari manfaatdor bo'lishlari lozim. Bunga, bizning fikrimizcha, quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- birinchidan, hududlarda yangi ish joylari tashkil etilishi natijasida mavjud ishsizlar soni kamayadi va ushbu omil bandlik jamg'armasidan ajratiladigan nafaqalarni tejashga imkoniyat yaratadi;
- ikkinchidan, hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi natijasida mahalliy soliqlarni to'lovchilar soni oshadi. Mahalliy byudjetlarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilardan soliq, patent to'lovidan tushumlarning ko'payishiga imkoniyat yaratiladi;
- uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi hududlarda aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish, bu oxir – oqibatda mamlakatimiz hududlari, shahar va qishloqlarimizdagi eng muhim ijtimoiy muammolarning ijobiy xal etishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, mahalliy byudjet mahalliy davlat organlariga yuklatilgan iqtisodiy – ijtimoiy vazifalarni bajarishlari uchun moliyaviy asosni tashkil etadi. Ushbu mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy davlat organlari o'z hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy – xo'jalik faoliyati nazoratini olib boradilar. Biz ilmiy izlanishimizlarda mahalliy moliyani shakllantirishda korxonalar moliyasini tahlil etishga harakat qilamiz:

Qashqadaryo viloyatida boqimanda qarzdorliklarni qisqartirish va soliq to'lovlarini rag'batlantiruvchilik funksiyasini oshirish hamda viloyat iqtisodiyotini barqaror o'sishini ta'minlaydigan to'g'ridan-to'g'ri xorij

investitsiyalarini jalb qilish orqali faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik jixatdan yangilash natijasida, mahsulot hajmini hamda sifatini oshirish bilan birgalikda mahalliy byudjet xarajatlarini optimallashtirish maqsadida, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida, yangi kichik korxonalar tashkil etish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish orqali, aholining ish bilan bandligini ta'minlash darkor.

Maxalliy byudjet daromadlarining hozirgi vaqtdagi asosiy ko'rsatkichi, davlat mulkini xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar ekanligiga alohida e'tibor qaratish, va viloyatda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy xo'jalik faoliyatini taftish etib, ulardan to'liq quvvat bilan ishlamayotgan korxonalarni yangi sarmoyadorlarga sotish va bu korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish zarur. Davlat mulkini sotishdan kelgan tushum esa mahalliy byudjet daromadlarini oshirishga imkoniyat yaratadi. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda umumdavlat soliqlaridagi ajratmalar normativini amaldagi tartibini saqlab qolish lozim. Viloyatlarda umumdavlat soliqlaridan tushumlarni ko'paytirishdagi manfaatdorlikni oshirish maqsadida, ushbu soliqlar bo'yicha o'rnatilgan rejadani ortiq summaning 50,0 % ini ularning ixtiyorida qoldirish lozim. Ushbu xolat mahalliy hokimiyatlarda umumdavlat soliqlarini o'z muddatida, to'liq kelib tushishidan manfaatdorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahalliy soliqlar kelib tushishini ko'paytirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan biri, soliqlarni yig'uvchanlik darajasini oshirish va soliq to'lovchilarning to'liq davlat ro'yxatidan o'tkazishni ta'minlash hamda ularning oqilona nazoratini kuchaytirish zarur.

Hududlarda o'z tarkibiga mahalliy byudjet, xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy mablag'lari, aholining pul daromadlari va xarajatlari balansini birlashtirgan yig'ma moliyaviy balansni tuzish lozim. Ushbu faoliyatni amalga oshirish tuman va shahar hokimlari xuzuridagi jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi mutassadi idoralar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning rahbarlari muvofiqlashtiruvchi kengashini tuzish darkor.

Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan tavsiya va takliflarning amaliyotga kiritilishi, milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan barqaror iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda va mamlakatimizda yuritilayotgan byudjet xarajatlari samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.